

**BIR TUGMA, BESH DAVLAT, SAKKIZ MILLIARD TAQDIR:
BMT XAVFSIZLIK KENGASHI VETO TIZIMI ZAMONAVIY DUNYO
UCHUN ADOLATLIMI?**

Abdusaitova Jasmina Erkinjon qizi

*Alfraganus Univercity nodavlat ta'lim muassasasining
xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2- bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: Turdiyev Madiyor Mamanazarovich.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining veto huquqi, zamonaviy xalqaro munosabatlar va global xavfsizlik nuqtai nazaridan keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda veto tizimining yaratilish jarayoni va sabablari, uning tarixiy ahamiyati hamda XXI asr sharoitida yuzaga kelayotgan muammolar o'rganiladi. Xususan, xalqaro mojarolar, qurolli to'qnashuvlar va gumanitar inqirozlar davrida veto huquqining qo'llanilishi natijasida BMTning samaradorligi va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri baholanadi. Maqolada veto tizimining ijobiy va salbiy jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, uning adolatlilik darajasi yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi. Shuningdek, global boshqaruvning zamonaviy talablaridan kelib chiqib, Xavfsizlik Kengashi faoliyatini takomillashtirish hamda veto mexanizmini isloh qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari xalqaro tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish va global tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkilotini zamonaviy dunyo tizimiga mos ravishda shakillantirish g'oyasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: BMT, Xavfsizlik Kengashi, veto huquqi, xalqaro xavfsizlik, diplomatiya, global boshqaruv, xalqaro huquq, BMT islohoti.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the veto power of the United Nations Security Council within the context of modern international relations and global security. The study examines the historical development and rationale behind the establishment of the veto system, its historical significance, and the challenges it faces in the 21st century. In particular, it evaluates the impact of veto usage during international conflicts, armed confrontations, and humanitarian crises on the effectiveness of the United Nations and its decision-making processes. The article presents a comparative analysis of the advantages and disadvantages of the veto system and offers academic conclusions regarding its level of fairness. Furthermore, based on the requirements of contemporary global governance, the study proposes reforms to improve the functioning of the Security Council and the veto mechanism. The findings of this research may contribute to enhancing the effectiveness of international organizations and strengthening global peace. Additionally, the idea of restructuring the United Nations in accordance with the modern world order is put forward.

Keywords: *UN, Security Council, veto power, international security, diplomacy, global governance, international law, UN reform.*

Аннотация: *В данной статье проводится комплексный анализ права вето Совета Безопасности Организации Объединённых Наций в контексте современных международных отношений и глобальной безопасности. Исследуется процесс создания и причины формирования системы вето, её историческое значение, а также проблемы, возникающие в XXI веке. Особое внимание уделяется влиянию применения права вето в условиях международных конфликтов, вооружённых столкновений и гуманитарных кризисов на эффективность деятельности ООН и процесс принятия решений. В статье проводится сравнительный анализ положительных и отрицательных сторон системы вето, а также делаются научные выводы относительно её справедливости. Кроме того, с учётом современных требований глобального управления предлагаются меры по реформированию Совета Безопасности и механизма вето. Результаты исследования могут способствовать повышению эффективности деятельности международных организаций и укреплению глобального мира. Также выдвигается идея реформирования ООН в соответствии с современным мировым порядком.*

Ключевые слова: *ООН, Совет Безопасности, право вето, международная безопасность, дипломатия, глобальное управление, международное право, реформа ООН.*

1. Kirish va mavzuning dolzarbligi: XX asr insoniyat tarixidagi eng murakkab va fojeali davrlardan biri bo'ldi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi millionlab insonlarning hayotiga zomin bo'lib katta yuqotishlarga olib keldi. Bu esa xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yangi mexanizmlarni yaratish zaruratini yuzaga keltirdi. Aynan shu ehtiyoj natijasida 1945-yil 24-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi. Tashkilotning asosiy maqsadi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat edi [1]. BMT tizimida Xavfsizlik Kengashi alohida o'rin tutadi. U xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi masalalarni ko'rib chiqish, sanksiyalar joriy etish, tinchlikparvar missiyalarni yuborish hamda zarur hollarda kuch ishlatishga ruxsat berish vakolatiga ega bo'lgan asosiy organdir [2]. Xavfsizlik Kengashi tarkibida o'n besh davlat mavjud bo'lib, ulardan beshtasi – Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya va Fransiya doimiy a'zo hisoblanadi hamda veto huquqiga ega [3].

Veto huquqi BMT tashkil etilgan davrda yirik davlatlar o'rtasidagi siyosiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida yaratilgan. Ushbu mexanizmning mohiyati shundaki, doimiy a'zolardan birortasi qarshi ovoz bergan taqdirda, rezolyutsiya qabul qilinmaydi. Mazkur tizim dastlab yirik davlatlarni xalqaro tashkilot doirasida hamkorlik

qilishga undovchi vosita sifatida baholangan [4]. Biroq bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi tubdan o'zgardi. 1945-yilda shakllangan geosiyosiy muhit bilan XXI asr voqeligi o'rtasida katta tafovut mavjud. Yangi iqtisodiy markazlarning paydo bo'lishi, global muammolarning murakkablashuvi, mintaqaviy mojarolarning ko'payishi va xalqaro terrorizm kabi tahdidlarning kuchayishi mavjud mexanizmlarning samaradorligi yuzasidan bahslarni kuchaytirmoqda [5].

So'nggi yillarda Suriya, Ukraina va G'azo bilan bog'liq mojarolar davomida Xavfsizlik Kengashi bir necha bor qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ayrim hollarda bir davlatning vetosi millionlab insonlar taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarning qabul qilinmasligiga sabab bo'ldi. Natijada xalqaro hamjamiyatda veto tizimining adolatligi va samaradorligi yuzasidan tanqidiy fikrlar kuchaydi [6].

Bugungi kunda dunyo aholisi sakkiz milliarddan oshgan bir paytda, global xavfsizlikka oid muhim qarorlarning besh davlat siyosiy irodasiga bog'liq bo'lishi xalqaro huquq, adolat va tenglik tamoyillari nuqtai nazaridan jiddiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda [7]. Ayrim tadqiqotchilar veto huquqini xalqaro barqarorlikning kafolati sifatida baholasalar, boshqalari uni BMTning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatadilar [8].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy xalqaro tizimda BMTning roli va ahamiyati saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, uning eng muhim mexanizmlaridan biri bo'lgan veto tizimining bugungi talablar va ehtiyojlarga qay darajada mos kelishi masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli veto huquqining tarixiy ildizlari, amaliy natijalari va istiqboldagi islohot imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimini xalqaro munosabatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, uning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda zamonaviy dunyo talablariga mos bo'lgan islohotlar yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida BMT Xavfsizlik Kengashi faoliyati tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmeti sifatida veto huquqining global xavfsizlik va xalqaro boshqaruv tizimiga ta'siri o'rganiladi.

2.Adabiyotlar tahlili BMT: Xavfsizlik Kengashining veto tizimi xalqaro munosabatlar fanida eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, veto huquqiga nisbatan yondashuvlar asosan ikki yo'nalishga bo'linadi: uni xalqaro barqarorlikni saqlashning muhim vositasi deb hisoblovchilar va uni zamonaviy dunyo uchun eskirgan mexanizm sifatida baholovchilar.

Xalqaro munosabatlar nazariyasining realist maktabi vakillari veto tizimini yirik davlatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlash vositasi sifatida ko'radilar. Ularning fikricha, xalqaro tizimning asosiy ishtirokchilari davlatlar bo'lib, ayniqsa yirik davlatlarning manfaatlarini e'tiborga olmasdan turib barqaror xalqaro tartibni

shakllantirish mumkin emas. Shu sababli veto huquqi doimiy a'zolari BMT doirasida ushlab turuvchi va ularning manfaatlarini hisobga oluvchi siyosiy mexanizm hisoblanadi [9].

Morgenthau va boshqa realist olimlar xalqaro siyosatda kuch omili hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, agar yirik davlatlar manfaatlariga zid qarorlar qabul qilinadigan bo'lsa, ular bunday qarorlarni bajarishdan bosh tortishi yoki xalqaro institutlarga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun veto huquqi amaliy siyosiy zarurat sifatida baholanadi [4].

Liberal va institutsional yondashuv tarafdorlari esa masalaga boshqacha nuqtai nazardan qaraydilar. Ularning fikriga ko'ra, xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifasi davlatlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va global muammolarni birgalikda hal qilishdan iboratdir. Shu sababli bitta davlatning butun xalqaro hamjamiyat irodasiga qarshi chiqish imkoniyati demokratik boshqaruv tamoyillariga to'liq mos kelmaydi [5].

Ian Hurdning fikricha, BMTning legitimligi uning barcha a'zo davlatlar manfaatlarini ifoda eta olish qobiliyatiga bog'liq. Agar ayrim davlatlar boshqalarga nisbatan haddan tashqari katta vakolatlarga ega bo'lsa, tashkilotning adolatlilik tamoyili zaiflashishi mumkin [3].

Tomas Vays o'z tadqiqotlarida BMTning asosiy muammolaridan biri sifatida Xavfsizlik Kengashi tarkibi va veto tizimining zamonaviy voqelikka mos kelmasligini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, bugungi dunyo 1945-yildagi dunyodan keskin farq qiladi, biroq qaror qabul qilish mexanizmlarining katta qismi o'sha davr mantig'i asosida faoliyat yuritishda davom etmoqda [6].

XXI asrda olib borilgan tadqiqotlarning muhim qismi veto huquqining gumanitar inqirozlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Bellamining fikricha, ommaviy inson huquqlari buzilishi, genotsid va etnik tozalash holatlarida veto qo'llanilishi xalqaro hamjamiyatning tezkor harakat qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin [8]. Shu sababli ayrim olimlar bunday vaziyatlarda vetoni vaqtinchalik cheklash g'oyasini ilgari surmoqdalar.

David Malone va Ramesh Thakur kabi tadqiqotchilar esa veto tizimini to'liq bekor qilish emas, balki uni bosqichma-bosqich isloh qilish tarafdoridirlar. Ularning fikricha, mavjud tizimning ayrim elementlari xalqaro barqarorlik uchun zarur bo'lsa-da, uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish talab etiladi [9; 10].

So'nggi yillarda BMT islohoti masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Xavfsizlik Kengashini kengaytirish g'oyasi ham faol muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchilar Afrika, Lotin Amerikasi va Janubiy Osiyoning yirik davlatlarini Kengash faoliyatiga kengroq jalb etish tashkilotning legitimligini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydilar [13].

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "mas'uliyatli veto", "cheklangan veto", "kollektiv veto" va "gumanitar istisno" kabi yangi konsepsiyalar shakllanmoqda.

Ushbu yondashuvlarning umumiy maqsadi veto huquqini saqlab qolgan holda uning salbiy oqibatlarini kamaytirishdan iboratdir [14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar o'rtasida veto tizimining kelajagi yuzasidan yagona fikr mavjud emas. Biroq aksariyat tadqiqotchilar bir masalada yakdildirlar: zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi BMT Xavfsizlik Kengashi faoliyatini va uning veto mexanizmini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar veto tizimining tarixiy ahamiyatini inkor etmagan holda, uning zamonaviy dunyo ehtiyojlariga moslashuvi zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

3. Metodologiya: Mazkur tadqiqotda BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimini zamonaviy xalqaro munosabatlar nuqtai nazaridan baholash hamda uning global xavfsizlikka ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro munosabatlar nazariyasining realizm, liberalizm va institutsionalizm yondashuvlari tashkil etadi. Mazkur nazariyalar veto tizimining turli jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Realizm davlat manfaatlari va kuchlar muvozanati nuqtai nazaridan veto tizimining zarurligini tushuntirsa, liberalizm xalqaro hamkorlik va adolat tamoyillari asosida uning samaradorligini baholash imkonini beradi. Institutsionalizm esa xalqaro tashkilotlarning faoliyati va ularning global boshqaruvdagi o'rnini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida birinchi navbatda tarixiy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul orqali veto huquqining shakllanish tarixi, uning yaratilish sabablari va dastlabki vazifalari o'rganildi. Xususan, 1945-yilda BMT tashkil etilgan davrdagi xalqaro siyosiy vaziyat va yirik davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi. Tarixiy yondashuv veto tizimining vujudga kelishidagi siyosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Ikkinchi usul sifatida qiyosiy tahlil qo'llanildi. Mazkur usul yordamida veto huquqining turli davrlardagi amaliy natijalari o'zaro taqqoslandi. Sovuq urush davridagi veto qo'llanilishi bilan XXI asrdagi xalqaro mojarolar jarayonidagi veto holatlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Ushbu yondashuv veto tizimining samaradorligi vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganligini baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda siyosiy-huquqiy tahlil usulidan ham foydalanildi. Ushbu usul yordamida BMT Ustavi, Xavfsizlik Kengashining vakolatlari va veto huquqining huquqiy asoslari o'rganildi. Veto tizimining xalqaro huquq tamoyillari, davlatlar suvereniteti va xalqaro adolat konsepsiyasi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri sifatida amaliy misollar tahlili ham amalga oshirildi. Bunda Suriya, Ukraina va G'azo bilan bog'liq xalqaro mojarolar alohida o'rganildi. Mazkur holatlar veto huquqining zamonaviy xalqaro siyosatdagi amaliy oqibatlarini ko'rsatib beruvchi muhim misollar sifatida tanlandi. Ushbu mojarolar davomida qabul qilinmagan rezolyutsiyalar va ularning oqibatlari tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi faoliyati tanlandi. Tadqiqot predmeti esa veto huquqining xalqaro xavfsizlik tizimi va

global boshqaruv mexanizmlariga ko'rsatadigan ta'siridan iboratdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda veto tizimi faqat tarixiy yoki huquqiy nuqtai nazardan emas, balki zamonaviy global boshqaruvning samaradorligi va adolatligi mezonlari asosida ham baholanadi. Bundan tashqari, tadqiqot doirasida veto huquqini to'liq bekor qilish emas, balki uni isloh qilishga qaratilgan yangi yondashuvlar tahlil qilinadi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot maqsadiga erishish, muammoni har tomonlama o'rganish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

4. Natijalar:

O'tkazilgan tadqiqot natijalari BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimi xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashiga qaramay, zamonaviy dunyo sharoitida bir qator jiddiy muammolarni ham yuzaga keltirayotganligini ko'rsatdi. Birinchi natija shundan iboratki, veto tizimi tarixiy jihatdan xalqaro barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoning eng qudratli davlatlari o'rtasida bevosita qarama-qarshiliklarning oldini olishda ushbu mexanizm muayyan darajada samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Veto huquqi doimiy a'zolarining manfaatlarini hisobga olish orqali BMTning faoliyat yuritishini ta'minlagan.

Ikkinchi natija sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, XXI asrda veto tizimining samaradorligi yuzasidan jiddiy savollar paydo bo'lmoqda. Tadqiqot davomida tahlil qilingan mojarolar shuni ko'rsatdiki, ayrim hollarda veto xalqaro hamjamiyatning tezkor harakat qilish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Natijada mojarolar uzoq davom etgan va insonparvarlik inqirozlari chuqurlashgan.

Uchinchi natija Xavfsizlik Kengashi tarkibining zamonaviy dunyo siyosiy manzarasini to'liq aks ettirmasligi bilan bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchayib borayotgan ko'plab davlatlar global qarorlar qabul qilish jarayonida yetarli darajada ishtirok etmayapti. Bu esa tashkilotning legitimligi va vakillik darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda.

To'rtinchi natija shuni ko'rsatdiki, veto huquqi ko'pincha xalqaro xavfsizlik masalalaridan ko'ra geosiyosiy manfaatlarni himoya qilish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Ayrim hollarda davlatlar xalqaro mojarolarga huquqiy yoki insonparvarlik nuqtai nazaridan emas, balki milliy manfaatlar nuqtai nazaridan yondashmoqda. Bu holat BMTga bo'lgan ishonchning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Beshinchi natija sifatida tadqiqot veto tizimini to'liq bekor qilish ham maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatdi. Chunki yirik davlatlarning roziligisiz qabul qilingan qarorlarning amaliy ijrosi murakkablashishi mumkin. Shuning uchun mavjud tizimni butunlay tugatish emas, balki uni zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda isloh qilish ko'proq samara berishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, eng maqbul yondashuv veto huquqini mas'uliyatliroq va muvozanatliroq shaklga keltirish hisoblanadi. Bunda insonparvarlik inqirozlari, genotsid va ommaviy qirg'in holatlarida vetoni cheklash, shuningdek, veto qo'llash tartibini qayta ko'rib chiqish xalqaro xavfsizlik tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimi o'z davrida muhim vazifani bajargan bo'lsa-da, zamonaviy dunyo sharoitida uning ayrim jihatlarini isloh qilish zarur ekanligini ko'rsatdi. Global xavfsizlikka tahdidlar murakkablashib borayotgan bugungi davrda xalqaro boshqaruv mexanizmlarining ham zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Muhokama:

Tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimi xalqaro munosabatlar tarixidagi eng murakkab siyosiy-huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim bir tomondan xalqaro barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida baholansa, ikkinchi tomondan global adolat tamoyillariga mos kelmasligi yuzasidan tanqid qilinadi [6; 9].

1945-yilda veto huquqining joriy etilishi o'sha davr xalqaro siyosiy muhitining mahsuli edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoning eng qudratli davlatlari o'rtasida muvozanatni saqlash va ularni yangi tashkilot doirasida hamkorlik qilishga undash zarur edi [1; 4]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, veto mexanizmi o'z davrida muhim vazifani bajargan. Biroq bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi sezilarli darajada o'zgargan. XXI asrda xalqaro siyosat faqat besh davlat manfaatlari bilan cheklanib qolmaydi. Hindiston, Braziliya, Turkiya, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa ko'plab davlatlarning global jarayonlardagi ta'siri ortib bormoqda [13]. Shunga qaramay, xalqaro xavfsizlik bilan bog'liq eng muhim qarorlar hali ham besh davlatning siyosiy irodasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Tadqiqot davomida tahlil qilingan mojarolar shuni ko'rsatdiki, veto huquqi ayrim hollarda xalqaro hamjamiyatning tezkor harakat qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Ayniqsa, insonparvarlik inqirozlari yuzaga kelgan vaziyatlarda geosiyosiy manfaatlar va insoniy qadriyatlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi [8; 10].

Muallifning fikricha, zamonaviy dunyo sharoitida veto tizimini to'liq bekor qilish maqsadga muvofiq emas. Chunki xalqaro siyosatda yirik davlatlarning ta'siri hamon yuqori bo'lib qolmoqda. Vetoning to'liq bekor qilinishi ayrim hollarda BMT qarorlarining amalda bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [9]. Shu bilan birga, amaldagi tizimni o'zgarishsiz qoldirish ham xalqaro boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etadi. Shuning uchun veto huquqini zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda isloh qilish zarur [6; 14].

Muallif tomonidan quyidagi islohot modeli taklif etiladi: Birinchidan, bitta davlat tomonidan qo'llanilgan veto qarorni avtomatik ravishda bloklamasligi kerak. Qarorni rad etish uchun kamida ikki yoki uch doimiy a'zoning

birgalikdagi vetosi talab qilinishi mumkin. Bu yondashuv bir davlat manfaatining butun xalqaro hamjamiyat manfaatidan ustun kelishini kamaytiradi.

Ikkinchidan, genotsid, etnik tozalash, ommaviy qirg'in va yirik gumanitar falokatlar bilan bog'liq masalalarda veto huquqini vaqtinchalik cheklash mexanizmi joriy etilishi lozim. Bunday yondashuv xalqaro huquqning insonparvarlik tamoyillariga ko'proq mos keladi [8].

Uchinchidan, Xavfsizlik Kengashi tarkibini kengaytirish zarur. Zamonaviy dunyoning demografik, iqtisodiy va siyosiy markazlari Kengash faoliyatida munosib aks etishi kerak. Bu BMTning legitimligi va vakillik darajasini oshirishga xizmat qiladi [13].

Taklif etilayotgan model veto tizimini bekor qilishga emas, balki uni yanada mas'uliyatli, muvozanatli va adolatli mexanizmga aylantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bilan birga global boshqaruv samaradorligini ham oshirishi mumkin. Shunday qilib, tadqiqot natijalari va ilmiy manbalar tahlili veto tizimining zamonaviy dunyo ehtiyojlariga mos ravishda isloh qilinishi zarurligini ko'rsatmoqda. BMTning kelajakdagi nufuzi va samaradorligi ko'p jihatdan uning o'zgaruvchan xalqaro muhitga moslasha olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi [11].

6. Xulosa:

Mazkur tadqiqot davomida BMT Xavfsizlik Kengashining veto tizimi tarixiy, siyosiy va huquqiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, veto huquqi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda xalqaro barqarorlikni ta'minlash va yirik davlatlarni yagona xalqaro tizim doirasida hamkorlik qilishga jalb etishda muhim rol o'ynagan [1].

Tahlillar natijasida aniqlandiki, veto tizimi o'zining tarixiy vazifasini ma'lum darajada muvaffaqiyatli bajargan bo'lsa-da, zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida uning ayrim jihatlari jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, xalqaro mojarolar va gumanitar inqirozlar davrida bir davlat tomonidan qo'llanilgan veto millionlab insonlar taqdiriga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ushbu mexanizmning adolatlilik yuzasidan savollarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bugungi dunyo 1945-yildagi siyosiy voqelikdan keskin farq qiladi. Global siyosatda yangi kuch markazlari shakllanmoqda, xalqaro muammolar murakkablashmoqda va global boshqaruv tizimidan yanada yuqori samaradorlik talab qilinmoqda [13]. Shunday sharoitda Xavfsizlik Kengashi faoliyati va veto tizimini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Maqolada veto huquqini to'liq bekor qilish emas, balki uni bosqichma-bosqich isloh qilish maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berildi. Xususan, bir davlat vetosining mutlaq ta'sirini kamaytirish, gumanitar falokatlar bilan bog'liq masalalarda vetoni cheklash hamda Xavfsizlik Kengashi tarkibini kengaytirish kabi takliflar ilgari surildi. Ushbu yondashuvlar xalqaro xavfsizlikni saqlash bilan bir qatorda global adolat va tenglik

tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Bugungi ko'p qutibli dunyoda rivojlanib borayotgan qator davlatlarga veto huquqi berilishi hamda BMT ga azo barcha davlatlar xavfsizlik nuqtaiy nazaridan huquqiy vakolatga ega bo'lishi vaziyatni ijobiy tus olishiga yordam beradi.

Tadqiqot yakunida shunday xulosaga kelish mumkinki, muammo BMTning mavjudligida emas, balki ayrim mexanizmlarining zamon talablariga to'liq javob bermayotganidadir. Agar BMT XXI asrda ham global tinchlik va xavfsizlikning asosiy tayanchi bo'lib qolishni istasa, uning eng muhim institutlaridan biri bo'lgan veto tizimi zamonaviy voqelik va xalqaro hamjamiyat ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Charter. New York: United Nations, 1945.
2. United Nations Security Council Handbook. New York: United Nations, 2024.
3. Hurd I. International Organizations: Politics, Law, Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
4. Morgenthau H. Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. New York: McGraw-Hill Education, 2006.
5. Keohane R. After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. Princeton: Princeton University Press, 2005.
6. Weiss T. What's Wrong with the United Nations and How to Fix It. Cambridge: Polity Press, 2016.
7. Luck E. UN Security Council: Practice and Promise. London: Routledge, 2018.
8. Bellamy A. Responsibility to Protect: A Defense. Oxford: Oxford University Press, 2015.
9. Malone D. The UN Security Council: From the Cold War to the 21st Century. Boulder: Lynne Rienner Publishers, 2004.
10. Thakur R. The United Nations, Peace and Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
11. United Nations. Security Council Report. New York: United Nations, 2024.
12. Roberts A., Kingsbury B. United Nations, Divided World. Oxford: Oxford University Press, 2018.
13. Gowan R. UN Reform in a Changing World Order. New York: New York University Press, 2021.
14. Krasno J. The United Nations: Confronting the Challenges of a Global Society. Boulder: Lynne Rienner Publishers, 2015.